

PREZIDENT FARMONLARI VA QARORLARI ASOSIDA AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Xusan Xusainov Baratovich

Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

yangihayot456x@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-1546-3466>

Telefon raqam: +998(95)-850-34-56

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22654617>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirishning institutsional va huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit ajratish jarayonlarini soddalashtirish, imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish hamda bank tizimi orqali resurslar taqsimotini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar:

aholi tadbirkorligi, kreditlash mexanizmlari, tijorat banklari, imtiyozli kreditlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, scoring tizimi, kafillik mexanizmi, kichik biznes

Kirish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida aholi tadbirkorligini rivojlantirish va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Prezident farmonlari va qarorlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda kreditlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, kreditlash jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, muqobil scoring tizimini qo'llash va bank xizmatlarini soddalashtirish orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – Prezident farmonlari va qarorlari asosida aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Aholi tadbirkorligini kreditlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, unda bank kreditlarining iqtisodiy o'sish, bandlik va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri alohida e'tirof etiladi. Xususan, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

B. Berkinov o'z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, N. Jo'rayevning fikricha, aholi tadbirkorligini rivojlantirishda mikrokreditlash tizimi va imtiyozli kreditlarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ta'kidlashicha, mazkur moliyaviy instrumentlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi, balki aholi bandligini oshirish hamda daromadlar darajasini ko'paytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

N. Shoaxmedovanning fikricha, yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mamlakatimizda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va biznes-rejalar tuzishga oid mavzularni qamrab olgan maxsus kurslar hamda dasturlar joriy etilgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida Prezident farmonlari va qarorlari asosida tadbirkorlikni kreditlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza shakllantirilgani ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirish mexanizmlarini o'rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va iqtisodiy-statistik usullar uyg'unligiga asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari aholi tadbirkorligini kreditlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda (1-Zilovalarda ko'rsatilgan).

Tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli ravishda o'rgandik hamda ularning mazmun-mohiyati, amaliy ahamiyati va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'рни ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Xususan, tadqiqot jarayoni davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-apreldagi PQ-4862-sonli hamda 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlaridagi o'zgarishlarni ham o'rgandik (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4862-sonli Qaror asosida aholi tadbirkorligini kreditlashdagi o'zgarishlar tahlili¹

Solishtirish mezonlari	13.10.2020-yildagi tahrir (PQ-4862-sonli)	14.02.2025-yildagi yangi tahrir (PQ-64-sonli)
Bosh maqsadi	Aholini (ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni) o'qitish orqali tadbirkorlikka jalb qilish hamda mikromoliyalash tizimini yaratish.	Kambag'allikni qisqartirish, samarasiz yoki bir-birini takrorlovchi subsidiyalar tizimini maqbullashtirish (optimallashtirish).
Ijtimoiy himoya integratsiyasi	Ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiya boshlang'ich bosqichda bo'lgan ("Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida).	Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag'al oilalar reyestri va Ijtimoiy reyestr ma'lumotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan.
Yangi joriy etilgan mexanizmlar	Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha maxsus sertifikatlar tizimi, tadbirkorlikka o'qitishning yagona tizimini yaratilgan.	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lganlarga tadbirkorlik uchun BHMning 10 baravarigacha subsidiya (ijtimoiy-moddiy yordam paketi), dehqonchilik va bog'dorchilik uchun 6 oylik imtiyozli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-sonli hamda 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

		davr bilan BHMning 200 baravarigacha moliyaviy ko'mak ajratish yo'lga quyildi.
Tadbirkorlarga yondashuv	Kreditlar asosan jismoniy shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga (YATT) o'z biznesini boshlashi uchun berilgan.	Tadbirkorlik subyektlariga kambag'al oilalar a'zolarini biriktirib, ularni daromad manbai bilan ta'minlaganidan so'ng grantning asosiy qismi (60 foizi) o'tkazib beriladigan natijaga asoslangan tizim joriy etildi.
Moliyaviy yordam berish shakli	Naqd va turli shakllarda berilgan.	2026-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy karta orqali ajratish joriy etildi.

Yuqoridagi 1-jadvaldagi tahlillar asosida shuni ta'kidlashimiz lozimki, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-sonli Qaror aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishning institutsional va moliyaviy asoslarini shakllantirib, mazkur yo'nalishda tizimli yondashuvning tamal toshini qo'ygan bo'lsa, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli Qaror hamda unga muvofiq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu tizimni yangi bosqichga olib chiqdi.

Xususan, PQ-64-sonli Qarorda raqamli iqtisodiyot tamoyillari, aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash jarayonlarining samaradorligi, shaffofligi va manzilligini sezilarli darajada oshirildi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli Qarori o'rganilib, mazkur hujjatning keyingi yillardagi o'zgarishlari tahlil qilindi (2-jadval).

1.4-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-55-son Qarori asosida aholi tadbirkorligini kreditlash shartlariga kiritilgan o'zgarishlar tahlili²

T/r	20.12.2021-yildagi tahrir PQ-55-sonli	02.04.2024-yildagi tahriri PQ-149-sonli
1.	oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga — 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;	oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) hamda tadbirkorlik subyektlariga 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan 4 yilgacha muddatga;
2.	chorvachilik (qoramol, qo'y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo'nalishi) uchun — 1	chorvachilik (qoramol, qo'y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo'nalishi) uchun — 1

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli, 2024-yil 2-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-sonli, 2025-yil 15-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-142-sonli va 2026-yil 1-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-49-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

	yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;	yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yildan 4 yilgacha muddatga;
3.	bog'dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo'jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun — 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga;	bog'dorchilik (ko'chatchilik), uzumchilik (tok so'risi) va limonchilikni tashkil etish, issiqxona qurish, qishloq xo'jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish hamda ularni joylashtirish uchun bino va inshootlar qurish, artezian quduqlarini qazish uchun — 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga;
4.	kreditlar mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisining (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchisi) o'ziga birlashtirilgan mahallada istiqomat qilayotgan (joylashgan) qarz oluvchiga beradigan tavsiyasi asosida ajratiladi;	kreditlar mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisining (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchisi) o'ziga birlashtirilgan mahallada istiqomat qilayotgan (joylashgan) qarz oluvchiga beradigan tavsiyasi asosida, shuningdek, mahsulot yetkazib berilganligi (xizmat ko'rsatilganligi) mahalla bankiri tomonidan tasdiqlangandan so'ng ajratiladi. Bunda boshqa marketpleyslar orqali mahsulotlar (xizmatlar)ni xarid qilish bo'yicha shartnoma tuzilgandan hamda kredit ajratilgandan so'ng mahsulot yetkazib berilganligi (xizmat ko'rsatilganligi) hokim yordamchisi hamda mahalla bankiri tomonidan monitoring dalolatnomasi asosida tasdiqlanadi (05.01.2026-yildagi PQ-49-sonli Qarori)
5.	hokim yordamchilari o'ziga birlashtirilgan mahallalarda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib boradi hamda kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi bo'yicha sektor rahbarlari va tijorat banklari bilan birgalikda tegishli choralarni ko'radi.	hokim yordamchilari o'ziga birlashtirilgan mahallalarda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib boradi hamda kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi bo'yicha tijorat banklari bilan birgalikda tegishli choralarni ko'radi (15.04.2025-yildagi PQ-142-sonli)

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-sonli³ Qarori hamda unga 2024-yil 2-aprelda PQ-149-sonli⁴, 2025-yil 15-aprelda PQ-142-sonli⁵ va 2026-yil 1-yanvarda PQ-49-sonli⁶

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5785317>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-aprelda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6862227>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-142-sonli Qaroriga ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-7479146>.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-49-sonli Qaroriga 11-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-8038302>

Qarorlari bilan kiritilgan o'zgartirishlar aholining oilaviy tadbirkorlik va daromad topishga yo'naltirilgan faoliyatini kreditlash shartlari bosqichma-bosqich takomillashtirilganini anglatadi. Xususan, imtiyozli kreditlardan foydalanish muddati ayrim yo'nalishlarda kengaytirilib, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va limonchilik kabi faoliyat turlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Shuningdek, yangi tahrirda kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash va ajratilgan mablag'larning samaradorligini monitoring qilish mexanizmlari kuchaytirilgan. Jumladan, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi hokim yordamchisi hamda mahalla bankiri tomonidan tasdiqlanishi belgilangan. Mazkur o'zgarishlar kredit resurslarining manzilliligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida Prezident farmonlari va qarorlari aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy institutsional-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, garov ta'minotini yengillashtirish hamda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda davlat dasturlari va Prezident tashabbuslari asosida ajratilgan kreditlar aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarda tadbirkorlik faolligini kuchaytirishda muhim multiplikativ ta'sirga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, "mahallabay" ishlash tizimi, imtiyozli kredit dasturlari va kooperatsiya asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-sonli hamda 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5785317>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6862227>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-142-sonli Qaroriga ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-7479146>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-49-sonli Qaroriga 11-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-8038302>
6. Berkinov B (2018) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot".98-101-betlar
7. Jo'rayev N (2020) Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot".
8. 156-bet.
9. Shoaxmedova N (2024) Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili.